



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q., Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 13 - sentabr

VI-65-180-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-apreldagi 213-F-son farmoyishiga asosan "Mahalla" xayriya jamoat fondi Angor tumani bo'limi qoshida ochilgan "Saxovat va ko'mak" jamg'armasiga tushgan mablag'larning sarflanishi va "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" jamg'armalari mablag'larining shakllanishi va maqsadli 2023-yil davomida ishlatilish holati yuzasidan tuman hokimining hisoboti to'g'risida**

Kun tartibidagi masala yuzasidan tuman hokimining hisobotini tinglab, bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Angor tumani Kengashi

### **QAROR QILADI:**

**1. Angor tumani hokimi Q.Mardonovning tumanda 2-chorak davomida "Saxovat va ko'mak", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" jamg'armalari mablag'larini shakllanishi va ularni sarflanishi yuzasidan olib borilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

**2. Tuman hokimining birinchi o'rribbosari (O.Muratov), tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (S.Kuchkarov), tuman hokimligi bosh hisobchisi (G'.Xudoyqulov):**

– ajratilayotgan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi va to'lanishiga shaxsan javobgarligi belgilab qo'yilsin.

**3. Tuman sektor rahbarlariga:**

- tumanda "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" asosida olib borilayotgan ishlarda aniqlangan kamchilik va muammolarni bartaraf etish;

- sektor hududidagi mahallalarda muntazam sayyor qabullar o'tkazib, aholi muammolarini hal etish choralarini ko'rish;

- sektorlarda “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan voyaga yetmaganlar, yoshlар, muammoli oilalar va ayollar bilan ishslashda mahalla, Yoshlar ishlari agentligi, ta’lim muassasalari, barcha jamoat tashkilotlari va keng jamoatchilikning mas’uliyatini oshirish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

#### **4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (O.Muratov, B.Xakimov, Sh.Rajabova), tegishli idora va tashkilot rahbarlari bilan birgalikda:**

- mahallalarda xotin-qizlar va yoshlarni kasbga o‘qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishini samarali tashkil qilish;

- “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar”ga kiritilgan xotin-qizlar, yoshlар, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar bilan manzilli ishslash, ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og‘ir, ishsiz hamda zo‘ravonlikka uchragan ayollar muammolarini aniqlash va hal qilish choralarini ko‘rish;

- “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar”ga kiritilgan xotin-qizlar, yoshlар, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish, uy sharoitida doimiy daromad manbayini yaratish maqsadida talabdan kelib chiqib, tegishlicha asbob-uskunalar bilan ta’minlab o‘zini-o‘zi band qilish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

#### **5. Tuman tibbiyat birlashmasi (Sh.Odinayev):**

– “Temir daftar”dagi nogironligi bor va ijtimoiy himoyaga muhtoj, kasallikka chalingan fuqarolarni davolash ishlarini tashkil etish topshirilsin.

#### **6. Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi (Sh.Qahhorov)ga:**

– mahallalarda faoliyat olib borayotgan yoshlар yetakchilarining reyting ko‘rsatkichlari asosida “qizil”, “sariq”, “yashil” toifalarga ajratish;

– reyting ko‘rsatkichlari past bo‘lgan yoshlар yetakchilarini faoliyatida yo‘l qo‘ygan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko‘rish, ularga uslubiy ko‘mak ko‘rsatish;

– mahallalardagi kam ta’minlangan oilalarda yashayotgan iste’dodli yoshlarni izlab topish va ularni ijtimoiy va ma’naviy jihatdan qo’llab-quvvatlash choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin

7. Tuman “Mahalla” xayriya jamoat fondi (U.Isayev), “Ayollar daftari” Vasiylik kengashi (Sh.Rajabova), “Yoshlar daftari” Vasiylik kengashi (Q.Mardonov) tegishli jamg‘arma mablag‘larini samarali va maqsadli sarflanishiga shaxsan mas’ul ekanliklari ko‘rsatib o‘tilsin.

8. Yuqorida vazifalar belgilangan mansabdor shaxslar tomonidan har oy yakuni

bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida yozma axborot kiritish topshirilsin.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmalariga yuklatilsin.

10. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**